

Kadirov Farxod Absattarovich

“Ijtimoiy-gumanitar fanlari” kafedrası o‘qituvchisi,
Angren universiteti

UTILITARIZM VA PRAGMATIZM NAZARIYALARI HAMDA ULARNING AXLOQIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASIGA TA’SIRI

Anattatsiya: Ilmiy va falsafiy ta’limotlar mavjud jamiyatda insoniyat hayotida ma’naviy, ruhiy, axloqiy jihatdan juda muhim. Ular ijtimoiy - iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat tuzilishi, ma’naviy hayot, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solidi hamda zamonaviy qarashlarni shakllantirib, rivojlantirib boradi. Ushbu maqola utilitarizm va pragmatizm nazariyalarining insoniyat hayotida axloqiy qadriyatlar o‘zgarishi ga ta’sirini ochib beradi.

Kali so‘zlar: utilitarizm, klassik utilitarizm, axloq, pragmatizm, evolyutsionizm, an’ana, Jeremi Bentam, Jon Styuart Mill, Uilyam Jeyms, Jon Devi, Richard Rorti.

Abstract: Scientific and philosophical teachings are extremely important in the life of humanity in terms of spirituality, morality, and ethics in any society. They regulate social and economic life, the structure of the state and society, spiritual life, and the relationship between individuals and society, while shaping and developing modern perspectives. This article explores the impact of the theories of utilitarianism and pragmatism on the change of moral values in human life.

Keywords: utilitarianism, classical utilitarianism, ethics, pragmatism, evolutionism, tradition, Jeremy Bentham, John Stuart Mill, William James, John Dewey, Richard Rorty.

Аннотация: Научные и философские учения имеют огромное значение в жизни человечества с точки зрения духовности, морали и этики в любом обществе. Они регулируют социальную и экономическую жизнь, структуру государства и общества, духовную жизнь и отношения между индивидами и обществом, одновременно формируя и развивая современные взгляды. Эта статья исследует влияние теорий утилитаризма и прагматизма на изменение моральных ценностей в жизни человека.

Ключевые слова: утилитаризм, классический утилитаризм, этика, прагматизм, эволюционизм, традиция, Джереми Бенхам, Джон Стюарт Милль, Уильям Джеймс, Джон Дьюи, Ричард Рорти.

XVII asrda Angliyada boshlangan ma’rifatparvar g’oyalari Frantsiya, Germaniya va Gollandiya kabi mamlakatlarga tarqaldi.¹ Zamonaviy olimlar inson erkinliklarini cheklovchi holatlarni tanqid qilib, Yevropada cherkov, din ta’limoti va absolyutizmga qarshi chiqdilar. Ma’rifatparvarlar axloqiy qadriyatlarni din qobig‘idan ozod qilishga intilib, asarlari orqali ommani ma’rifatli qilishga harakat qildilar.

Ilmiy hamda badiiy adabiyotlarda yangicha dunyoqarashni sakllantirishga extiyoj kuchaya boshlandi.

Jeremi Bentam klassik utilitarizm nazariyasini taklif etib, axloqiy me’yorlarni lazzat va azobga asoslagan. Uning fikricha, etika inson tabiatini o‘rganuvchi antropologiyaga tayanishi lozim. Bentam axloq, huquq va davlat tizimi insonning lazzat olish va azobdan qochishga bo‘lgan tabiiy intilishlariga mos kelishi kerakligini ta’kidladi. U “eng katta baxt” tamoyilini harakatning haqiqiy maqsadi deb ko‘rsatgan.² Foyda tamoyili XVIII asrda F. Xatcheson, Ch. Bekariya va

¹ B. Umarov. G‘arb va sharq ijtimoiy tafakkurida erkinlik g‘oyasi takomili. Toshkent. “Akademiya”.123-bet

² Bentam I. “Axloq va qonunchilik asoslariga kirish” / B.G. Kapustin tarjiması, Moskva, 1998. 9-bet.

boshqalarda uchrasa-da, Bentam bu g‘oyani axloq nazariyasining asosiy elementi sifatida shakllantirgan.

Bentam odamlar o‘z istaklarini qondirishga intilib, baxtni lazzat mavjudligi va azob yo‘qligi deb bilgan. Uning fikricha, lazzat har qanday zavqni, foyda esa har qanday nafni, jumladan moddiy manfaatlarni o‘z ichiga oladi. U foydalanish tamoyilini barcha axloqiy qoida va tamoyillarni qamrab oluvchi asosiy prinsip deb hisoblagan va “So‘zlar turlicha, lekin tamoyil bir xil” - deb ta’kidlagan.³

Jon Styuart Mill utilitarizmni rivojlantirib, nafaqat jismoniy lazzat, balki yuqori ma’naviy qadriyatlarga ham e’tibor qaratdi. U baxtni insonning oliy maqsadi sifatida ko‘rib, uni toza va uzoq davom etadigan zavq deb ta’rifladi. Millning fikricha, utilitarizm egoizmga qarshi bo‘lib, umumiy yaxshilikni ta’minlashni maqsad qiladi. Harakatlar umumiy baxtni oshirishga qo‘shgan hissasiga qarab baholanadi, axloq esa insoniyatga eng kam azob va eng ko‘p zavq keltiradigan qoidalar yig‘indisidir.

Jon Styuart Millning utilitarizmi umumiy yaxshilikka asoslanib, “har bir shaxsning baxti umumiy baxtga xizmat qilishi kerakligi”⁴ni ta’kidlaydi. Axloqiy me’yorlar va harakatlar umumiy farovonlikni oshirish va azoblarni kamaytirishga qaratilgan qoidalar asosida baholanadi. Mill inson o‘ziga bog‘liq xayrli amallarni bajarishi lozimligini va axloqli bo‘lish kasbiy va ijtimoiy burchlarni halol ado etishni talab qilishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ezgulik baxtning bir qismi yoki unga erishish vositasi bo‘lib, maqsad emas. Ezgulik inson uchun zavq olish yoki azob-uqubatlardan qochishning vositasi sifatida ahamiyatlidir.⁵

Asosiy mazmun	Jon Styuart Mill	Jeremy Bentham
Nazariy asos	Mill utilitarizmni rivojlantirib, Benthamning g‘oyalarini takomillashtirdi.	Bentham lazzat va azobni axloqiy harakatlar asosida ko‘radi.
Asosiy tamoyil	Eng yuqori darajadagi baxt va umumiy yaxshilikka e’tibor qaratadi.	“Eng ko‘p odamga eng ko‘p lazzat” tamoyilini qo‘llaydi.
Yangi qo‘shimchalar	Baxtga erishishda ma’naviy qadriyatlarni yuqori o‘ringa qo‘yadi, shunchaki jismoniy lazzatni emas.	Faqat lazzat olish va azobdan qochishga urg‘u beradi.
Axloqiy me’yorlar	Axloq umumiy baxtga, eng kam azob va eng ko‘p zavq keltirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.	Axloqiy qoidalarning asosiy mezonini insonning lazzat va azobga bo‘lgan intilishlari bilan bog‘liq.
Baxt va ezgulik	Baxt oliy maqsad, lekin ezgulik o‘z-o‘zidan maqsad emas, balki baxtga erishish vositasi sifatida ko‘riladi.	Benthamda ezgulik alohida nazarda tutilmagan; asosiy diqqat lazzat va azobga qaratilgan.
Intuitivizm va apriorizm tanqidi	Mill intuitivizm va apriorizmni tanqid qiladi, ayniqsa Kant va uning tarafdorlarining	Benthamda Kantning qarashlari va aprioristik yondashuvlarga e’tibor

³ Бентам И. “Введение в основание нравственности и законодательства” // Указ. соч. С. 23.

⁴ Милль Дж.С. Утилитарианизм. О свободе: 3-е изд. СПб., 1900. С. 107

⁵ Милль Дж.С. Утилитарианизм. О свободе. Там же. С. 148.

	tanqidlarini hisobga olgan.	qaratilmagan.
Egoizmga qarshi nuqtai nazar	Shaxsiy manfaatdan ko'ra umumiy manfaatga e'tibor berish lozim, bu egoizmga qarama-qarshi bo'lgan yondashuv.	Shaxsiy va umumiy manfaatlarga alohida urg'u bermaydi; asosiy tamoyil "eng katta lazzat"dir.
Umumiy manfaatni baholash	Mill foyda prinsipini umumiy baxt bilan bog'laydi, shaxsiy manfaat o'rniga jamiyat farovonligini yuqori qo'yadi.	Benthamda foyda prinsipi individual lazzat va azob bilan uzviy bog'langan.
Axloqiy xulq-atvor maqsadi	Axloqning maqsadi – eng kam azob va eng ko'p baxtni jamiyat uchun ta'minlashdir.	Axloqiy xulq-atvor inson intilishlarini lazzat va azob mezoniga bog'laydi.

Ezgu fazilatlarining ahamiyati va ularning baxtga erishishdagi roli haqida fikr yuritilganda, bu qadriyatlarning faqat o'zida emas, balki baxtga erishishning vositalari sifatida qadrlanishi muhim. Axloqiy fazilatlar, masalan, xushmuomalalik, halollik, sabr - toqat, va rahm-shafqat, odamning ichki dunyosini mustahkamlash va tashqi muhit bilan sog'lom munosabatlar o'rnatish uchun xizmat qiladi. Baxtga erishish yo'lida bu fazilatlar odamning ongini, his-tuyg'ularini va qarorlarini shakllantiradi.

1878-yilda "G'oyalarimizni qanday aniq qilish mumkin" maqolasida pragmatizm atamasini kiritgan. Shu maqolada Pirs o'zi ilgari surgan prinsipni ham tushuntiradi: biror narsani o'rganishda kuzatuvchi yoki tadqiqotchi bu narsa qanday tuyg'ular uyg'otishini va undan qanday amaliy natijalar kelib chiqishi mumkinligini aniqlashi lozim. Pragmatizmga ko'ra, har qanday fikrning mazmuni shu fikrdan kelib chiqadigan harakat tarzida aks etadi.⁶

1879-Pragmatizm metodi haqiqiy tan olinishiga Uilyam Jeymsning ma'ruzalari va keyingi nashrlari tufayli erishdi. Jeyms va Jon Devi pragmatizmning asosiy axloqiy-falsafiy qoidalarini shakllantirdilar. Pragmatizm tamoyillarga emas, amaliy natijalarga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, haqiqat faoliyatni soddalashtirish, tajribani tartibga solish va eski tajribani yangisi bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladigan g'oya sifatida talqin etiladi.

Pragmatizm utilitarizm va evolyutsionizm an'alariga asoslanib, axloqiy qadriyatlarni inson ehtiyojlari va munosabatlari bilan bog'laydi⁷. Jeyms esa bu masalada inson tabiatida idealga intilish, ya'ni faqat yoqimli va foydali narsalardan farqli tushunchalar mavjudligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, axloqiy ideallar turlicha bo'lsa-da, ular faqat lazzat olish yoki azobdan qochishga asoslanmaydi.

Jeyms axloqiy tushunchalarni insonning aprior bilimlari yoki tug'ma qobiliyatidan emas, balki uning ongidan va faoliyatidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi. U yaxshilik va haqiqatni odamlar tomonidan tan olinishi orqali mavjud bo'lishini ta'kidlaydi: yaxshilik his qilinishi, haqiqat esa anglanishi kerak. Qadriyatlar insonning sezuvchi ongi orqali faollashib, real hayot bilan bog'langanda haqiqiy mazmun kasb etadi. Jeymsga ko'ra, inson yaxshilik va yomonlikni tashqi

⁶ См.: Джеймс У. Прагматизм / Пер. П.С. Юшкевича // Джеймс У. Воля к вере / Общ. ред. П.С. Гуревича. 1997. С. 225.

⁷ См. статьи У. Джеймса в сб. "Воля к вере" – "Великие люди и среда" и "Значение индивидов" (Указ. соч. С. 138-167).

talablar ta'siridan mustaqil ravishda ajrata oladi, lekin subyektiv qarashlar obyektiv haqiqatni qamrab oluvchi axloqiy tartibga yaqinlashishga intiladi.⁸

	Mazmuni	Jeysmsning ta'kidlari
	<p>Jeysmsning fikricha, agar dunyoda faqat ikkita sevuvchi ruh qolsa, ular o'zaro axloqiy talablar qo'yib, bir-biriga yaxshilik yoki yomonlikni baholashsa, ularning axloqiy tizimi mavjud bo'ladi. Axloqiy tartib Xudo yoki tashqi dunyodan mustaqil bo'lib, shaxslar o'rtasidagi munosabatlar va ongning o'zgarishiga asoslanadi. Jeysms, yaxshilik mezoniga oid murakkab savolga javoban, barcha mumkin bo'lgan yaxshiliklarni o'z ichiga olgan axloqiy tizimni qurish imkonsizligini tan oladi, chunki ideal va haqiqat o'rtasida nomutanosiblik mavjud.</p>	

⁸ Джеймс У. Этическая философия и моральная жизнь / Пер. СИ. Церетели // Джеймс У. Указ. соч. С. 125.

<p>Yaxshilikning asosiy o'lhovi uning baxtni keltirishi bilan bog'liq. Shu bois, axloqiy falsafiyanning universal prinsipi "mumkin bo'lgan ko'proq talablarni doimiy qondirish"⁹ bo'lishi kerak, va mukammal harakat minimal qurbonliklar bilan eng yaxshi natijaga olib keladi. Funktsiya</p>		
<p>Psixologik</p>	<p>Axloqiy tushunchalarni insonning psixologik holati va ijtimoiy tajribalari asosida shakllanishini o'rganadi.</p>	<p>Axloqiy baholar insonning ichki ehtiyojlari va shaxsiy tajribalaridan kelib chiqadi.</p>
<p>Metafizik</p>	<p>Axloqiy tushunchalarning "haqiqatdagi" o'rnini va ularning mavjudligi asoslarini aniqlaydi.</p>	<p>Yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalar inson sezgilari orqali shakllanib, mutlaq haqiqatdan emas, shaxsiy tajribalardan kelib chiqadi.</p>
<p>Kazuistik</p>	<p>Yaxshilik va yomonlikning aniq ko'rinishlari va bu tushunchalardan kelib chiqadigan axloqiy vazifalarni real holatlar asosida aniqlaydi.</p>	<p>Axloqiy baholar konkret vaziyatlarga moslashgan holda shakllanadi; an'anaviy nazariy qoidalar emas, balki amaliy yondashuv qo'llanadi.</p>

im real talabga javoban mavjud bo'ladi, va bu talabning manbai insonning istagidir. Har bir istak, uning mavjudligi tufayli, qonuniydir. Burch hissi boshqalarga munosabatda paydo bo'ladi va uning yuragi "jonli ong" tomonidan qo'yilgan talabga javoban harakat qiladi. Jeymsga ko'ra, axloqiy tartib va dunyo Xudo yoki diniy e'tiqodlardan mustaqil ravishda mavjud bo'lishi mumkin, chunki axloqiy me'yorlar faqat insonlar o'rtasidagi munosabatlar va talablar asosida shakllanadi. Yaxshilik va yomonlik haqidagi hukmlar odamlarning o'zaro mas'uliyatlarini ko'rsatadi va bu ichki ongdan kelib chiqadi.

Jeymsning axloqiy falsafasi uchta asosiy funktsiyani bajarishini ta'kidlaydi: psixologik, metafizik va kazuistik.

⁹ Джеймс У. Этическая философия и моральная жизнь. С. 131.

Jeysmsning fikricha, axloqiy falsafa eskirgan usullarni tark etishi kerak. An'anaviy metafizik axloqiy falsafa o'rniga, tajriba va real vaziyatlarni tahlil qilish zarur. Axloqiy masalalarni hal qilishda amaliy va empirik yondashuvlar qo'llanilishi lozim. Jeysmsning axloqiy falsafasi "pozitivistik" va "empiric" bo'lib, tabiiy fanlar kabi doimiy o'zgarib turuvchi bilimlarni o'rganadi. Jon Devi ham axloqiy falsafani qayta qurishga, mutlaq yaxshilik tushunchasidan voz kechishga chaqiradi. U, tarixiy axloqdan farqli o'laroq, "o'zgarib turadigan, harakatdagi yaxshiliklar va maqsadlarning plyuralizmini"¹⁰ qabul qilishni, prinsiplar va qonunlarning individual holatlarni tahlil qilish uchun vositalar ekanligini ta'kidlaydi.

Devi nisbiylikni qo'llab - quvvatlamasligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, konkret vaziyatlar axloqiy qarorlarni belgilashda umumiy prinsiplarga qarshi bo'lmasligi kerak. Axloqiy harakat har doim noyob bo'lib, to'g'ri qaror har bir vaziyatni chuqur o'rganish asosida qabul qilinadi. Bu, amaliy intellektual vazifa bo'lib, yechimi hissiyot, sezgirlik va qarama - qarshiliklarni hal qilishga bog'liq. Devi bularni fazilatlar yoki axloqiy mukammalliklar¹¹ -deb ataydi.

Jon Devi axloqiy hayotni tushunishda konkret vaziyatlarni hal qilishga ko'proq e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, to'g'ri xulq - atvor har bir vaziyatda eng katta yaxshilikni ta'minlashi kerak, bu esa barcha tomonlarga foyda keltiradi. Yaxshilik vaziyat talablariga mos keladigan harakatlardir, axloqiy vazifa esa qarama-qarshi talablar yuzaga kelganda eng katta yaxshilikni amalga oshirishdir. Devi axloqiy qarorlarni har bir vaziyatga mos holda, mavjud qiymatlarni hisobga olib belgilash zarurligini ta'kidlaydi. Bunday situatsionizm yoki kontekstualizm¹² axloqiy tajribani to'plab borish uchun joy qoldirmasligi sababli tanqid qilingan.¹³ Devi esa bunga javoban, maqsadlar va qiymatlar haqidagi umumlashtirilgan tasavvurlar ham xuddi boshqa umumiy g'oyalar kabi mavjudligini va ular konkret holatlar yuzaga kelgan sari intellektual vositalar sifatida foydalanilishini ta'kidlagan. Ular vosita sifatida yaratiladi va shu holatlarga nisbatan amaliylikni sinovdan o'tkazadi.

¹⁰ Дьюи Дж. Реконструкция в философии / Пер. с англ. М. Занадворова, М. Шикова.М., 2001.С. 130-131.

¹¹ Дьюи Дж. Реконструкция в философии. С. 132.

¹² Situatsionizm va kontekstualizm o'rtasida ba'zi o'xshashliklar bo'lishi mumkin, ammo ular bir-biridan farq qiladi. Ikkalasi ham biror hodisa yoki qarorni tushunishda kontekstni hisobga olishni ta'kidlaydi, ammo ularning asosiy g'oyalari va qo'llanish sohalari farq qiladi. **Situatsionizm** — bu odamlarning xulq-atvori va qarorlarini, ularning o'zlarini atrof-muhit yoki konkret vaziyatda qanday tutishlariga bog'liq holda tushuntirishga intiladigan yondashuvdir. Situatsionizmning eng mashhur talqini axloqiy falsafada, shuningdek, psixologiyada ham uchraydi. Unga ko'ra, odamlarning xulq-atvori har doim o'zgaruvchan vaziyatlarga mos ravishda rivojlanadi, shuning uchun bitta holatdagi xulq-atvor boshqa holatda boshqacha bo'lishi mumkin. Situatsionizmga umumiy ahloqiy qoidalar yoki universal me'yorlar mavjud emas, balki har bir konkret vaziyatda xulq-atvorni baholash kerakligi ta'kidlanadi. **Kontekstualizm** - bu falsafiy yondashuv, unda haqiqiylik va ma'no o'zgarishi mumkin bo'lgan kontekstga bog'liqdir. Kontekstualizm lingvistik va ma'no nazariyalarida keng qo'llaniladi, masalan, tilshunoslikda, etika va falsafada. Bu yondashuvga ko'ra, biror so'z, qaror yoki xulq-atvorni to'g'ri tushunish uchun uni kontekstga joylashtirish kerak. Kontekstualizmga, biror narsa yoki voqea uning yuzaga kelgan muhitidan ajralib turmaydi, va har bir qaror yoki talqin uning atrofidagi omillar va vaziyatga qarab farq qilishi mumkin.

¹³ Holmes Я Basic Moral Philosophy. Beimont, 1992. P. 219-237; Morris Ch. The Pragmatic Movement in American Philosophy. New York, 1970.

Jon Devi va J. Taftning (1862 - 1942) hamkorligida yozilgan “Axloq” (1908) nomli asarida¹⁴, bir necha oʻn yillar davomida AQShda axloqiy falsafaga oid eng mashhur kitoblardan biri boʻlib qolgan, “reflektiv”¹⁵ va “odatiy” axloqiy tizimlar oʻrtasidagi farq kiritilgan¹⁶.

Devining axloqiy gʻoyalari siyosiy nazariyaga, xususan, “demokratiya axloqiy konsept sifatida”¹⁷ oʻgʻitiga va taʼlim nazariyasiga, ayniqsa, axloqiy tarbiya sohasiga tatbiq etildi¹⁸.

Richard Rorti. 60 – 70 yillarda pragmatizm falsafada deyarli oʻz oʻrnini yoʻqotgan edi; hatto koʻplab amerikalik faylasuflar uni oʻtmishdagi va eskirgan deb hisoblashardi. Biroq, 1980 - yillarning oxiridan boshlab u “ikkinchi nafas” oldi. Buni amalga oshirishda zamonaviy amerikalik faylasuf R. Rorti (1931) muhim rol oʻynadi. Rorti, shuningdek, D. Davidson, U. Kvayn va X. Patnem¹⁹ kabi faylasuflar bilan birgalikda pragmatizm, yoki baʼzida “neopragmatizm”²⁰ deb ataladigan bu intellektual harakat, faqat “maktab yoki yoʻnalish” deb atashdan xalos boʻlib, Nitsheaning falsafadagi burilishining namoyon boʻlishi sifatida paydo boʻldi. Rorti klassik pragmatizmni James va Devining asarlarini, Nitshe Evropada (kontinental falsafada) amalga oshirgan ishning amerikalik paralleliga aylantirgan deb hisoblaydi, bu esa ekzistensializm²¹, germenevtika²² va strukturalizm²³da oʻz ifodasini topdi. Ushbu yoʻnalishda

¹⁴ О Дж. Тафтсе см. www.pragmatism.org/genealogy/tufts.htm.

¹⁵ Reflektiv deganda, odatda, insonning oʻz xatti-harakatlari va fikrlarini tahlil qilish, qayta koʻrib chiqish va oʻzgarishlar kiritish jarayoni tushuniladi. Reflektiv yondashuvda shaxs oʻzining tajribalari va qarorlarini chuqur oʻylab, ulardan dars chiqaradi va kelajakda yanada maqsadga muvofiq harakat qilishga harakat qiladi. Bu jarayon oʻz-oʻzini anglash va oʻzgarishlarni amalga oshirish uchun zarurdir.

¹⁶ Dewey J., Tufts J.H. Ethics // Devi J. The Middle Works of John Dewey, 1899-1924. Vol. 5. Carbondale and Edwardsville, 1978. P. 160. Birinchisi, konkret vaziyatlarda axloqiy muammolarni hal qilish jarayonida yuzaga keladigan gʻoyalar va qoidalarga nisbatan ishlatiladi; ikkinchisi esa, takrorlanadigan vaziyatlar asosida shakllanadigan umumiy axloqiy maqsadlar va prinsiplarga ishora qiladi, ular "operatsion a priori" sifatida qaralib, har safar yangi axloqiy qarorlar qabul qilishda tekshiriladi va tasdiqlanadi.

¹⁷ Dewey J. The Ethics of Democracy // Dewey J. The Early Works of John Dewey, 1882-1898. Vol. 1. Carbondale and Edwardsville, 1972. P. 227-249; а также Дьюи Дж. Общество и его проблемы / Пер с англ. И.И. Мюрберг, А.Б. Толстова, Е.Н. Косиловой. М., 2002. С. 56-80, 105-134

¹⁸ Дьюи Дж. Демократия и образование / Пер с англ. Э. Гусинского и Ю. Турчаниновой. М., 2000.

¹⁹ Rorty J. Consequences of Pragmatism. Minneapolis, 1982; Юлин Н.С. Джон Дьюи и прагматическое наследие в современной философии США // Философский прагматизм Ричарда Рорти и российский контекст / Отв. ред. А.В. Рубцов. М., 1997. С. 156-188.

²⁰ Neopragmatizm — bu pragmatizm falsafasining yangilangan va zamonaviy shakli boʻlib, unda amaliy tajriba va haqiqiy dunyo bilan bogʻliq masalalar oʻrganiladi. Neopragmatizm, eski pragmatizmga koʻproq eʼtibor qaratilgan amaliy yechimlar bilan birga, gʻoya va nazariyalar haqida ham yangi yondashuvlarni kiritadi.

²¹ Ekzistensializm - bu insonning mavjudligini, uning hayotidagi maʼno va maqsadni qidirish, erkinlik va shaxsiy tajribani asosiy eʼtiborga oladigan falsafiy oqim. Ekzistensializmga insonning

analitik falsafiyani ham ko‘rib chiqish lozim (yuqorida nomlangan amerikalik faylasuflar odatda analitik faylasuflar sifatida qaraladi). Shu bilan birga, pragmatizm, Pirsdan oldin, Darwin, Spenser va Mill tomonidan e‘lon qilingan g‘oyalar rivojlanishi sifatida qaraladi.

Asosiy tushunchalar	Faylasuflar	G‘oya yoki tushuntirish
Pragmatizm	Charlz Pirs (1839-1914)	Pirs pragmatizm atamasini kiritib, fikrning mazmunini harakat tarzida ifodalaydi.
Prinsip va Amaliyot	Uilyam Jeyms (1842-1910)	Jeyms pragmatizmni axloqiy falsafaga tatbiq qilib, axloqiy tushunchalarning shaxsiy va amaliy tajribaga asoslanganligini ta’kidlaydi.
Axloqiy Qadriyatlar	Uilyam Jeyms (1842-1910)	Jeyms qadriyatlarni insonning sezuvchi ongi va real hayoti bilan bog‘laydi, ular anglab turilgan holatda mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi.
Axloqiy Ideal va Relativizm	Uilyam Jeyms (1842-1910)	Jeyms, axloqiy ideallar turli va subyektiv bo‘lsa-da, har bir inson uchun muhimligini ko‘rsatadi.
Situatsionizm yoki Kontekstualizm	Jon Devi (1859-1952)	Devi pragmatizmni konkret vaziyatlarda amaliy natijalarga yo‘naltirib, umumiy qoidalarni rad etadi. Har bir vaziyat noyob va alohida yechim talab qiladi.
Nisbiylik (Relativizm)	Jon Devi (1859-1952)	Devi pragmatizmni konkret vaziyatlarda amaliy natijalarga yo‘naltirib, umumiy qoidalarni rad etadi. Har bir vaziyat noyob va alohida yechim talab qiladi.
Demokratiya va Axloqiy Tarbiya	Jon Devi (1859-1952)	Demokratiya axloqiy konsept sifatida jamiyatdagi tarbiyaviy tizimlarni axloqiy asosda shakllantirishni talab qiladi.
Neopragmatizm	Richard Rorti	Rorti klassik pragmatizmni yangilab, uni

erkinligi, o‘z - o‘zini anglash va uni yaratish masalalari muhim o‘rin tutadi. Bu oqimda, insonning hayoti va qarorlari o‘z qo‘lida bo‘lib, u har bir kishi o‘zining maqsadi va yo‘nalishini o‘zi aniqlaydi.

²² Germenevtika - bu matnlarni, nutqlarni va boshqa madaniy hujjatlarni tushunish, sharhlash va talqin qilish metodologiyasidir. Dastlab diniy matnlar, xususan, Bibliya kabi asarlarni sharhlash uchun ishlatilgan, keyinchalik esa kengayib, barcha sohalarda qo‘llanila boshlandi. Germenevtika asosan matnlarning mazmunini aniqlash, ularning kontekstini tushunish va tarjima qilish jarayonini o‘rganadi.

²³ Strukturalizm - bu inson faoliyatini, madaniyatni va jamiyatni tushunishda ularning ichki strukturalarini, ya'ni tizimli tuzilmalarini o‘rganishga asoslangan yondashuvdir. Strukturalistlar turli madaniy hodisalarni, masalan, til, adabiyot, urf-odatlar va psixologik jarayonlarni, ularning tashkil etuvchi qismlari o‘rtasidagi munosabatlar orqali tushunishadi. Ularning fikriga ko‘ra, har bir madaniy va ijtimoiy hodisa o‘zining strukturaviy tizimi orqali aniq ifodalanadi.

	(1931-2007)	ekzistensializm va germenevtika bilan birlashtiradi, pragmatizmni nisbiylikka yo‘naltirilgan deb baholaydi.
Axloqiy tushunchalarning insoniy asoslari	Richard Rorti (1931-2007)	Har qanday axloqiy tushuncha insoniy ehtiyojlarga asoslangan va obyektiv universal tamoyillardan yiroq deb hisoblanadi.
Yaxshilik va haqiqat	Richard Rorti (1931-2007)	Rorti pragmatizmning relativistik qiyoslanishlariga qarshi chiqib, inson tajribasi va hayotiy ehtiyojlar bilan birga yashashini ta’kidlaydi.

Etikada bu qarash shundan iboratki, har qanday axloqiy, kengroq ma’nodda esa, qadriyatlar haqidagi tasavvurlar asosan insoniy ehtiyojlarga asoslanadi, boshqa universal tamoyillar (madaniy, kosmik yoki ilohiy) emas. Faylasuf mutafakkirlar, masalan, Kant yoki Mill tomonidan muqaddaslangan bo‘lsada, barqaror axloqiy tamoyillar o‘tgan avlodlarimizning bizda chuqur hurmat uyg‘otadigan odatlarining “o‘ziga xos qisqa ifodasi” sifatida ko‘rib chiqiladi.²⁴

Axloq insonning hayotiy intilishlari bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun pragmatizm, Rortining so‘zlariga ko‘ra, “yaxshilik uchun kurash mavjudlik uchun kurash bilan bir butunlikni tashkil etadi”, deya pragmatizmga nisbatan ilgari surilgan relativizm ayblovlarini rad etadi.²⁵ Shunday qilib, Kantcha tipdagi axloqiy tushunchalarning universalist - absolyutistik konsepsiyalaridan farqli o‘laroq, turli ong va faoliyat turlariga qarshi qo‘yilgan Rorti axloqni inson tajribasining ichki jihatdan xilma - xil, lekin mohiyatan yagona va yaxlit ifodasi sifatida tushunishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. B. Umarov. G‘arb va sharq ijtimoiy tafakkurida erkinlik g‘oyasi takomili. Toshkent. “Akademiya”.123-bet
2. Bentam I. “Axloq va qonunchilik asoslariga kirish” / B.G. Kapustin tarjimasi, Moskva, 1998. 9-bet.
3. Бентам И. “Введение в основание нравственности и законодательства” // Указ. соч. С. 23.
4. Милль Дж.С. Утилитарианизм. О свободе: 3-е изд. СПб., 1900. С. 107
5. Джеймс У. Прагматизм / Пер. П.С. Юшкевича // Джеймс У. Воля к вере / Общ. ред. П.С. Гуревича. 1997. С. 225.
6. Статьи У. Джеймса в сб. “Воля к вере” – “Великие люди и среда” и “Значение индивидов” (Указ. соч. С. 138-167).
7. Джеймс У. Этическая философия и моральная жизнь / Пер. СИ. Церетели // Джеймс У. Указ. соч. С. 125.
8. Дьюи Дж. Реконструкция в философии / Пер. с англ. М. Занадворова, М. Шикова.М., 2001.С. 130-131.
9. Holmes Я Basic Moral Philosophy. Beimont, 1992. P. 219-237; Morris Ch. The Pragmatic Movement in American Philosophy. New York, 1970.
10. О Дж. Тафтсе см. www.pragmatism.org/genealogy/tufts.htm.

²⁴ Рорти Р. Релятивизм: найденное и сделанное // Философский прагматизм Ричарда Рорти и российский контекст // Указ. соч. С. 37.

²⁵ O‘sha manba.

11. Dewey J., Tufts J.H. Ethics // Dewey J. The Middle Works of John Dewey, 1899-1924. Vol. 5. Carbondale and Edwardsviile, 1978. P. 160.
12. Dewey J. The Ethics of Democracy // DeweyJ. The Early ,Works of John Dewey, 1882-1898. Vol. 1. Carbondale and Edwardsviile, 1972. P. 227-249;
13. Дьюи Дж. Демократия и образование / Пер с англ. Э. Гусинского и Ю. Турчаниновой. М., 2000.
14. Rorty Я Consequences of Pragmatism. Minneapolis, 1982; Юлин Н.С. Джон Дьюи и прагматическое наследие в современной философии США // Философский прагматизм Ричарда Рорти и российский контекст / Отв. ред. А.В. Рубцов. М., 1997. С. 156-188.
15. Рорти Р. Релятивизм: найденное и сделанное // Философский прагматизм Ричарда Рорти и российский контекст // Указ. соч. С. 37.